



Gulrux HAQBERDIYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi
E-mail: gulruhhakberdieva63@gmail.com

Dotsent., PhD, A.A.Rahimov taqrizi asosida

THE MAIN INDICATORS OF EMOTIONAL SPEECH ACTIVITY

Annotatsion

This article is discussed the main indicators of emotional speech activity, and provides various reasons for its importance in human lifestyle. Researches and research conducted in this field are discussed. There are given quotes from the works of scientists who have conducted research in this field. People's acquisition of knowledge about existence is a process that is realized as a result of the close activity of emotions and thinking. It should also be noted that the world view and feelings of the users of this language are reflected in the landscape of conceptual understanding of the world.

Key words: Conceptual system, conceptual landscape, presupposition, linguistic-thinking, emotional non-verbal syntax, emotional morphology, primary emotion, introversion, pity, negative emotion, communicative activity.

ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЭМОЦИОНАЛЬНО-РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные показатели эмоционально-речевой деятельности, приводятся различные обоснования важности ее роли в образе жизни человека. Обсуждаются исследования и исследования, проводимые и проводимые в этой области. Приводятся цитаты из работ ученых, проводивших исследования в этой области. Приобретение людьми знаний о существовании есть процесс, реализующийся в результате тесной деятельности эмоций и мышления. Следует также отметить, что мировоззрение и чувства носителей этого языка отражаются в ландшафте концептуального понимания мира.

Ключевые слова: Понятийная система, понятийный ландшафт, пресуппозиция, лингвистическое мышление, эмоциональный невербальный синтаксис, эмоциональная морфология, первичная эмоция, интроверсия, жалость, отрицательная эмоция, коммуникативная активность.

EMOTSIONAL NUTQIY FAOLIYATNING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada emotsional nutqiy faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlarida fikr yuritilgan bo‘lib, uning inson turmush tarzidagi o‘rni ahamiyati borasida turli xil asoslar keltirilgan. Bu soxada olib borilgan hamda olib borilayotgan tadqiqodlar, izlanishlar muxokama qilingan. Ushbu sohada tadqiqod ishlari olib borgan olimlar ishlaridan iqtiboslar keltirilgan. Insonlarning borliq haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishi his-tuyg‘u va tafakkurning chambarchas faoliyati natijasida amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. Yana shuni ham ta’kidlash joizki, olamning konseptual anglash manzarasida mazkur til foydalanuvchilarining dunyoqarashi, hissiyotlari o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: Konseptual tizim, konseptual manzara, presuppozitsiya, lisoniy-tafakkur, emotsional sintaksis, emotsional morfologiya, birlamchi emotsiya, ichiqoralik, achinishb, salbiy emotsiya, kommunikativ faoliyat.

Kirish. Tobora rivojlanib borayotgan antropolingvistika doirasida inson ruhiy holati, his-tuyg‘ularining nutqiy voqelanishiga e’tibor kuchayib bormoqda. Hozirgi his-tuyg‘u faoliyatning muhim qismi ekanligiga ishonmaydigan tadqiqotchi topilmasa kerak. Zotan, inson olam haqidagi bilimni tafakkur faoliyati natijasida o‘zlashtiradi hamda bilim paydo bo‘lishi jarayonida ongda asl olamning ideal aksi shakllanadi. Ushbu aks mavhumlashgan konsept ko‘rinishini olib, konseptual tizimni tashkil qiladi. Mazkur tizim, o‘z navbatida, insonlarga o‘z nutqiy xulq-atvorini boshqarish imkoniyatini beradi (Korovkin 1993: 52).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kognitiv tilshunoslar tasavvurida olamning konseptual manzarasida til sohibining dunyoqarashi, hissiyotlari o‘z aksini topadi. Ushbu manzara til vositasida voqelanadi hamda uning ayrim qismlari timsol, chizma, surat kabi boshqa ko‘rinishdagi vositalarni talab qiladi (Kubryakova 1997). I.I.Xaleyevaning ta’kidicha, olamning konseptual manzarasi faqat tushunchalar jamlanmasidan iborat bo‘lmasdan, balki ongning emotsional-baho harakatlarini ham qamrab oladi (Xoleyeva 1998: 118). Unutmaslik kerakki, olamning konseptual manzarasi shaxsning amaliy tajribasi jarayonida shakllanib, individga xos

bo‘lgan nolisoniy presuppozitsiya (tasavvur) shaklida bilimlar asosida boyib boradi.

Har qanday shaxsning lisoniy-tafakkur harakati esa his-tuyg‘udan holi emas. Olamning emotsional idroki uning lisoniy manzarasining emotsional bo‘lagini ajratishga sharoit tug‘diradi. N.A.Krasovskiy olamning emotsional manzarasini “idrok, tasavvur, hissiyotlar ta’sirida yuzaga keladigan perseptiv obrazlar majmuasi” sifatida talqin qiladi (Krasavskiy 2008: 59).

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday qilib, “emotsiyalarni inobatga olmasdan tilning tabiiy holatini tasvirlash va uni mohiyatini to‘liq tavsiflashning imkoni yo‘q”, (Shaxovskiy 1987: 7), degan fikrga ko‘shilamiz. Obyektiv borliqni bilishning his-tuyg‘u bilan bog‘liq jihati so‘zsiz tilda o‘z aksini topadi, zero kommunikativ vazifa bajarilishida til birliklari vositasida nafaqat fikr, balki so‘zlovchiga xos hissiyotlar ham voqelanishi muqarrar.

Hissiyot inson oqilona faoliyatining qariyb barcha ko‘rinishlarida o‘z o‘rmiga ega bo‘lib, til tizimining barcha sathlarida namoyon bo‘ladi va bundan grammatika ham istisno emas. O.YE. Filomonova muloqot kechishida muhim rol

o'ynaydigan emotsional sintaksis va emotsional morfologiyani farqlaydi (Filomonova 2001).

Tilda his-tuyg'uning ifoda topishi muammosi tilshunoslarning e'tiborini tinimsiz jalb etib kelayotganiga qaramasdan, ushbu hodisa tahlili va talqini borasida bildirilayotgan fikrlar turli-tumanligicha qolmoqda. Ko'pchilik tadqiqotchilar hissiyotning lisoniy voqelanishini tahlil qilayotib asosiy e'tiborni alohida lug'aviy birliklar guruhlarining semantik xususiyatlarini yoritishga qaratadi. Lekin so'nggi yillarda his-hayajonli suhbat, emotsiyaning nutqida va diskursda ifodalanishi kabi masalalar muhokamasi faollashib bormoqda, hamda mazkur hodisa pragmatikistik, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya sohalarining tadqiq obyektiga aylandi.

Shu yo'sinda, V.I. Shaxovskiy quyidagi muammolar zamonaviy tadqiqotlar mavzusiga aylanganini qayd etadi: emotiv belgilar tipologiyasi, emotsiyaning olam lisoniy manzarasi shakllanishidagi roli; olamning emotsional lisoniy manzarasi tushunchasi; his-hayajonifodasining milliy-madaniy xususiyatlari; lisoniy belgi emotivligini belgilash mezonlari; his-hayajonning nutqiy faoliyatga ta'siri; matn emotsionalligi; emotiv nutq pragmatikasi va boshqalar (Shaxovskiy 2010: 19)

Darhaqiqat, his-hayajon o'ziga xos intellektual-mental harakat shakli, unda atrof-muhitdagi holat, kechayotgan voqelarga baho beriladi. Emotsiya faoliyatida bilim, fikr o'zgaradi va bu his-hayajonning o'zgarishiga olib keladi. Ma'lum vaziyat, davr, yosh va jins uchun turlicha his-hayajonxos bo'lishi mumkin. Ayni paytda, inson ichki dunyosini aks ettiruvchi emotsiyalar turli-tuman.

Ruhshunoslar birlamchi va ikkilamchi his-hayajonni farqlashga odatlanishgan. Olimlar umumiy xarakterga ega va yoshlikdan boshlab shakllanadigan asosiy yoki birlamchi emotsiyalar qatoriga xursandchilik, qo'rquv, g'azab, hayrat kabilarni kiritadilar. I.S. Bajenova birlamchi emotsiyalar negizida ikkilamchi va boshqa turdagilarini ajratish mumkin deb hisoblaydi (Bajenova 2003: 65). Masalan, nafrat qahr-g'azab orqali farqlansa, muhabbatning negizida esa xursandchilik yoki qo'rquv turadi. Ajratilayotgan asosiy yoki birlamchi emotsiyalar soni bir xil emas. Jumladan, U. Makdauell g'azab, nafrat, qo'rquv, itoatkorlik, hayrat, ko'tarinki kayfiyat, mehribonlik kabi yettita birlamchi emotsiyani farqlasa, boshqa tadqiqotchilar esa ular qatoriga qayg'u, xursandchilik, g'azab, nafrat, qo'rquv, uyat, ayb, hasrat kabilarni ham qo'shib qo'yadilar (Ens iklopediya prakticheskoy psixologii).

K. Izardning fikricha, emotsiyalar turli jamiyat va milliy madaniyatlarda bir xil ifodaga ega. U bunday birlamchi, universal emotsiyalarning sonini 11 taga yetkazadi:

xursandchilik, hayrat, g'azab, nafrat, qayg'u, azoblanish, uyat, ayb, hayajonlanish, qiziqish (Izard 1999).

Tahlil va natijalar. Ajratilayotgan birlamchi emotsiyalar miqdoridagi farqqa qaramasdan, barcha tadqiqotchilar quyidagi nazariy tamoyillarga asoslanayotganini payqash mumkin:

birlamchi emotsiyalar inson mavjudligining asosida turadi;

har qanday turdagi emotsiya o'ziga xos motivga ega va ma'lum shakl hamda his-tuyg'uga namoyon bo'ladi;

asosiy emotsiyalar turlicha qabul qilinadi va inson xatti-harakati, tafakkuriga turli ko'rinishda ta'sir o'tkazadi;

emotsional jarayon, jismoniy, idrok, kognitiv faoliyat bilan o'zaro aloqaga kirishadi va ularga ta'sir ko'rsatadi;

xuddi shu jarayonlar, o'z navbatida, his-hayajon kechishiga ta'sir ko'rsatadi (Izard 1999).

Albatta, emotsiyalarni birlamchi va ikkilamchi turlarga taqsimlash qiyin masala. Insonga xos hissiyotlar, emotsiyalar ko'lami cheksiz va turli-tuman. Ma'quli ularni ijobiy va salbiy guruhlariga ajratish bilan birgalikda, betaraflari ham mavjudligini e'tirof etish kerak. Emotsiyalarning bunday taqsimotida ularning kishiga huzur-halovat yoki noqulaylik bag'ishlashini inobatga olish lozim. Masalan, ichiqoralik ijobiy hissiyotdan xabar berishi mumkin bo'lgan bir paytda, achinish salbiy bo'yoq oladi. Salbiy emotsiyaning lisoniy madaniyatlarda ko'plab miqdorda voqelanishining sababi til tizimida yoqimsiz hissiyotlarni ifodalovchi so'zlarning ko'pligi bilan izohlanadi.

Shuning bilan birgalikda, V.I. Shaxovskiy ta'kidlaganidek, emotsiya inson tug'ilganidan to o'limga qadar uning kommunikativ faoliyatining ajralmas qismidir, zero "go'dakning birinchi favquloddagi qichqirig'idan boshlab ulg'aygan kishining nutqida his-hayajonning ongli ravishda qo'llashigacha barchasi tilning emotiv maydonini hosil qiladi" (Shaxovskiy 2008: 187). Emotsional nutq ifoda vositalarining cheksizligi ushbu hodisaning lisoniy maqomi mustahkamligidan guvohlik beradi.

Xulosa va takliflar. Shuni aytish mumkinki, emotsiyani ifodalovchi birliklar mazmuni insonlarning borliqdagi mavjudligi uchun muhim bo'lgan voqea va vaziyatlarni aks ettirishini unutmazlik kerak. Ular bevosita har bir shaxsning axloqi, dunyoqarashi, maqsadi, qadriyatlariga munosabati kabi xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq va bir vaqtning o'zida ushbu xususiyatlar ifodachisi ham hisoblanadi. Hissiyotlarda insonning atrof-muhitga munosabati namoyon bo'ladi va lisoniy belgilar vositasida voqelanib, o'ziga xos modal mazmun ifodasi uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Баженова И.С. Эмоции, прагматика, текст. – М.: Менеджер, 2003. – 392 с.
2. Изард К. Психология эмоций. – СПб.: Питер, 1999. – 464 с.
3. Коровкин М.М. Фреймовые связи в тексте // Язык и модаль мира. – М.: МГЛУ, 1993. – С. 48-59.
4. Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах. – М.: Гнозис, 2008. – 374.
5. Кубрякова Е.С. Части речи с когнитивной точки зрения. – М.: ИЯ РАН, 1997. – 330 с.
6. Филимонова О.Е. Язык и эмоции в английском тексте. Когнитивный и коммуникативные аспекты. – СПб: Изд-во СПб. Пед. У-та, 2001.
7. Халеева И.И. Основы теории обучения понимания иноязычной речи (подготовка переводчиков). – М.: Высшая школа, 1989. – 238 с.
8. Шаховский В.И. Эмоции: Долингвистика. Лингвистика. Лингвокультурология. – М.: URSS, 2010. – 128 с.
9. Шаховский В.И. Эмоциональные культурные концепты: параллели и контрасты // Языковая личность и культурные концепты. – Волгоград, 1996. – 260 с.
10. Энциклопедия практической психологии (электронный ресурс). – Режим доступа: <http://www.psychologos.ru>.